

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY ONGNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nazirova Guzal Malikovna

Qo'qon DPI dosenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6628393>

Annotasiya. Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, unda maktabgacha yosh davrida ijtimoiy ongni shakllantirish yo'llari, belgilovchi omillar o'rganilgan. SHuningdek, ijtimoiy ongni rivojlantirish mexanizmini o'rganish asoslab berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, katta yoshdagi bolalar, ijtimoiy ong, ijtimoiy ongni shakllantirish, ijtimoiy kompetensiya, "Men" konsepsiyasi, rivojlanayotgan bola, o'zini-o'zi baholash, ijtimoiy bilish.

Zamonaviy ta'limning nazariyasi va amaliyoti o'sib kelayotgan yosh avlodning rivojlanishi uchun turli avlodlarning madaniy yutuqlarining uzluksizligini ta'minlovchi, shu bilan birga har bir insonning shaxsiy rivojlanishining cho'qqisiga erishish uchun asos yarata oladigan imkoniyatlarni izlashga qaratilgan. Mazkur masalalarni hal etish uchun dastlabki sharoit bo'lib insonning ijtimoiy ahamiyatli xulqini tashkil etishga ko'maklashuvchi ichki psixologik sharoitlarni inobatga olish bo'lishi mumkin, bu esa ijtimoiy ong, bilish jarayonida amalga oshiriladi.

"Pedagogika" ensiklopediyasida "Ong – 1. Odam ruhiy faoliyatining oliy shakli; kishining fikrlash qobiliyati; aql, idrok. 2. Odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati. 3. Voqelikning inson miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi" tarzida talqin qilingan [2; 164-b.].

"Ijtimoiy ong" atamasi esa bugun pedagogika, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalarda faol qo'llaniladi. Ammo ko'p asrlar davomida ilmiy fikr bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan, asta-sekin uni yagona ko'rinishga olib keluvchi mazkur atamani tashkil etuvchi ta'riflarni o'rgangan. Bilishning ijtimoiy aloqadorligiga taalluqli masalalar qadimdan falsafada o'rganilgan, ammo faqat XX asr boshlarida inson ijtimoiy olamni qanday anglashi to'g'risidagi masalaning ko'rib chiqilishi taklif etilgan.



Maktabgacha yoshdagi bolaning refleksiyasining ifodalanishi u o'zini "ichki" bilishini ko'rsatadi. SHu bilan birga, interpretasiya va identifikasiya mexanizmlari bola o'zini "atrofdan" anglashi to'g'risida aytish imkonini beradi. Bu, bolaning o'z-o'ziga munosabatlari ikki yo'nalishlarda sodir bo'lishini anglatadi: Men sub'ekt sifatida va Men bilish ob'ekti.

Bu davrda bolaning boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlari ularning hatti-harakatlari, so'zlari, xulqlarining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini tushunish asosida quriladi. O'z shaxsiga murojaat boshqa insonlar bilan o'xshash sifatlarga ega bo'lgan, tashqi ob'ekt sifatida sodir bo'ladi. Mazkur ifodalar ilk yosh davridanoq ijtimoiy ongning asosi yuzaga kelishi to'g'risida guvohlik beradi: bola ijtimoiy ob'ektlarni aniq ajratadi, yaqin insonlarni ajratadi, o'zining insonlik mohiyatiga murojaat etadi.

L.S.Vygotskiy va A.R.Luriyalarning ta'kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bola xotirasining rivojlanishi madaniyat va solumning ta'siriga sezilarli bog'liqdir: "... rivojlanayotgan bola ko'pincha unga eslab qolishiga yordam beruvchi tayyor tizimlarni qabul qiladi va faqat ularga jalb etiladi, ulardan foydalanishni o'rganadi, ularni egallaydi va ular orqali o'z tabiiy jarayonlarini o'zgartiradi" [4; 165-b.].

Maktabgacha yosh davrida bolalarda sensor tajriba tizimi shakllanib, u bilishga oid faoliyatning yana bir jihati hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola predmetlarning shakli, kattaligi, rangi, ta'mi, hidi kabi ko'p sonli sifat va xususiyatlarini, predmetlarning fazodagi holati, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashning usullarini egallaydi, vaqtni idrok etishni o'zlashtiradi. Atrofdagi olamni idrok etish ijtimoiy tajriba nuqtai nazaridan amalga oshadi, bilimlarni o'zlashtirish o'qitishning muayyan tizimida sodir bo'ladi.

G.Kreyg tomonidan o'tkazilgan maktabgacha yoshdagi bolaning Men-konsepsiyasining rivojlanishi muammosi bo'yicha xorijiy tadqiqotlarning tahlili, birinchidan o'z egaliklari chegaralarini belgilashni biladigan bolalar rivojlangan kognitiv sohalari bilan tavsiflanadilar: bunday bolalarda o'zi va boshqa insonning alohida mavjudotlar sifatida tushunish ortadi. Ikkinchidan, yaxshi ijtimoiylashgan bolalar yanada rivojlangan Men-konsepsiyasiga ega bo'ladilar [6]. Bularning barchasi, bolada o'zini tushunish ijtimoiy olamni tushunish bilan bevosita bog'liq deb hisoblash imkonini beradi.



Avval bola predmetli sohada o'xshashga intilib, kattalarga taqlid qiladi. Bolani boshqa inson qanday harakat qilishi, buning uchun u qanday predmetlardan foydalanishi qiziqtiradi. Bola katta insonga predmetli harakatlarda taqlid qilib, doim unga o'xshash bo'lishga intiladi: shuningdek «o'qish», «tikish», «mix qoqish» kabilarda.

Asta-sekin bola katta insonning ijtimoiy vazifalarining nafaqat predmetli tashkil etuvchilarini ajratadi, u rolli vaziyatlarga bog'liq bo'lgan, insonlar o'rtasida turli xil o'zaro munosabatlar yuzaga kelishini anglaydi.

Bu davrda bolaga jinsi, oiladagi o'rni, bolalar bog'chasidagi pozisiyasi va boshqalar bo'yicha mansublik hissi shakllanadi. Ijtimoiy bilish mexanizmlari orqali bola o'zi va boshqa insonlar to'g'risida ko'pgina bilimga ega bo'ladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy bilish mexanizmlarining rivojlanishiga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot yordam beradi.

Tengdoshlari bilan muloqot bolaning potensial imkoniyatlarini ochish, uning boshqa insonlarga munosabatlari shakllanishi uchun turtki beradi, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolaning o'zini-o'zi bilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning tengdoshlari bilan muloqotlari faol rivojlanadi. A.G.Ruzskayaning tadqiqotida ilk va maktabgacha yosh davrida tengdoshlar bilan muloqotda bolaga o'zini-o'zi bilish va o'zini-o'zi baholashni ta'minlovchi sharoitlar yaratilishi ta'kidlangan. Bolalik davrida o'zini-o'zi baholashning dinamikasi ijtimoiy bilish rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egadir[7].

Maktabgacha yoshdagi bola o'z oldiga "yuqori" qiyinchilikdagi vazifalarni qo'yadi, uning intilishlari ularni hal etish uchun kuchini maksimal qo'llashga undaydi. Bolalar tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda, ular kattalarning tajribasini qanday o'zlashtirganliklarini tekshirib ko'rishlari, o'z xulqlarini boshqa bolalarning hatti-harakatlari bilan bevosita solishtirishlari, ular bilan bahs va munozaralarda nimani va qanday amalga oshirish kerakligini aniqlashlari mumkin.

A.S.Belkin, A.V.Zaporojes, YA.L.Kolominskiy, A.N.Krilova va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha bolalik uchun boshqalar bilan bir qatorda ehtiyojlarning (moddiy, ma'naviy, bilishga oid) barcha asosiy turlarini qondirishda oilaning yuqori roli kabi xususiyat xosligini ko'rsatganlar[7]. Ma'lumki, inson ehtiyojlarini qondirish samarali muloqotning yaxlit jarayoni orqali sodir bo'ladi va unga oilaning katta va kichik avlod vakillari qo'shiladilar.



REFERENCES

1. Ravshanbek, J. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(4), 304-309.
2. O'G'Li, J. R. M. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. *Ta'lim fidoyilari*, 25(5), 93-97.
3. Jorayev, N. S. (2021, July). QUALITY LEARNING PROCESS-AS A MECHANICAL SUM OF TEACHING AND LEARNING PROCESSES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 57-59).
4. Sadullayevich, J. N. (2021). Improving psychological technologies for the development of professional reflection in future teachers. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 229-232.
5. Джураева, М. А. (2022, May). ПРИЁМЫ КОНТРОЛЯ УРОВНЯ ЗНАНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 28-32).
6. Abdukakhhorovna, Z. M. (2022). Lexical Polysemy of the Russian Language. *Middle European Scientific Bulletin*, 22, 77-81.
7. Akilovna, E. M. (2022). METHODS OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF PEDAGOGUES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 228-232.
8. Akilovna, E. M., & Fotima, B. (2022). MODERN APPROACHES TO CHILDREN'S INTELLECTUAL DEVELOPMENT. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 233-237.
9. Мирахмедов, Ж. М. (2017). Бағрикенглик ижтимоий-фалсафий қадрият. *Молодой ученый*, (4-2), 27-28.
10. МИРАХМЕДОВ, Ж. М., & БАБАЕВА, Н. М. (2016). К ВОПРОСУ О СУЩНОСТИ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ. In *Будущее науки-2016* (pp. 16-19).
11. Мирахмедов, Ж. М. (2016). Некоторые аспекты проблемных концепций осмысления динамики научного знания. In *Молодежь и наука: реальность и будущее* (pp. 245-247).



12. Мирахмедов, Ж. М. (2017). Тарих фалсафий тадқиқот предмети сифатида. Молодой ученый, (4-2), 26-27.
13. Мирахмедов, Ж. М. (2016). Теоретическая подготовка студентов к социологическим исследованиям в практической и самостоятельной работе. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 318-319).